https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Nusratillayeva Sevarabonu Rustam qizi
Navoiy davlat universiteti
Maktabgacha va Boshlang‘ich ta’lim fakulteti
Boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 2-“B” guruh talabasi
Elektron pochta: nusratillayevasevara@gmail.com
Telefon raqami: +998881770609
Ilmiy rahbar:
Isroilova Ruhshona Sunnatovna
Navoiy davlat universiteti “Boshlang‘ich ta’lim” kafedrasi, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (phD), dotsent

BOSHLANG‘ICH SINF O'QUVCHILARINING KREATIV TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISHNING METODIK ASOSLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini shakllantirish jarayoni, uning ahamiyati, mazmuni hamda metodik asoslari yoritilgan. Shuningdek, ijodiy tafakkurni rivojlantirishda qo‘llaniladigan samarali metodlar, o‘qituvchining roli va o‘quvchilarda mustaqil fikrlashni rag‘batlantirish usullari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: kreativ tafakkur, intelektual, ko'rgazmali metodlar, rolli o'yin, didaktik o'yin, ko'nikma, muammoli vaziyat, tanqidiy fikrlash, aqliy hujum

Annotation: This article explores the process of developing creative thinking among primary school students, emphasizing its significance, content, and methodological foundations. It analyzes effective methods used to enhance creative and critical thinking, the teacher’s role in this process, as well as modern approaches to encouraging independent thinking in students.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Keywords: creative thinking, intellectual development, visual methods, role play, didactic games, skills, problem situations, critical thinking, brainstorming.

Аннотация: В данной статье рассматривается процесс формирования креативного мышления у учащихся начальных классов, его сущность, значение и методические основы. Анализируются эффективные методы развития творческого и критического мышления, роль учителя в этом процессе, а также современные способы стимулирования самостоятельного мышления у учащихся.

Ключевые слова: креативное мышление, интеллектуальное развитие, наглядные методы, ролевые игры, дидактические игры, навыки, проблемная ситуация, критическое мышление, мозговой штурм.

Kirish.

Bugungi kunda dunyoqarashi keng, mustaqil fikrlaydigan komil insonni tarbiyalash, eng dolzarb muammolardan biridir.Bu muammo qadim-qadimdan ham eng muhim muammolardan bo'lgan. Fikrimizning dalili sifatida mutafakkirlarimiz asarlariga murojaat etar ekanmiz ularda ham inson va insoniylik munosabatlar, shaxs va uning kamoloti muammolari qaysi davrda yashashimizdan qat'iy nazar o'sha jamiyatning ilg'or kishilari, olimlar, buyuk allomalar va donishmandlarning diqqat markazidagi asosiy masalalardan bo'lib kelgan. Har bir davr yoshlarining bilim darajasi, fikrlashi, dunyoqarashi, ma'naviy qiyofasiga qarab o'sha jamiyatning ertangi kunini aniq tasavvur etish mumkin.Zero yoshlar jamiyatning tub negizi, aholining ilg'or qatlami, kelajakning ishonchli egalaridir. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning «Bugungi kunda Vatan taraqqiyoti yurt tinchligi, farovon hayotga erishish, xalqaro maydonda munosib o'rin egallashdek ezgu maqsadlarga yetish yo'lida biz tayanchimiz va suyanchimiz bo'lmish yoshlarimizga beqiyos orzu-umidlar bilan qaraymiz»[1]. Ushbu so'zlar hozirgi yoshlarga bo'lgan cheksiz hurmat va e'tibor belgisidir.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Darhaqiqat, biz bugungi kunda yoshlarimizda kreativ tafakkur va mustaqil fikrlashni tarbiyalashimiz, globallashuv jarayonida asosiy vazifadir. Tafakkur ham psixik jarayonlardan biri bo'lib idrok, xayol, xotira va shunga o'xshash holatlarga bog'liq. Tafakkur iborasi arabcha "fikr" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, o'ylash, muhokama, mushohada va fikr yuritish ma'nolarini bildiradi. Xl asrda tilimizda ong, aql, tafakkur so'zlari bilan birga sof turkiy so'z "o'g" ishlatilgan. O'git so'zi ham shundan kelib chiqqan.Turk xoqonligida saroy amaldorlaridan biri "o'gilik" deb atalgan, bu lavozim egasi maslahatchilik, vasiylik bilan shug'ullangan.

Ergash G'oziyev o'zining "Tafakkur psixologiyasi" kitobida tafakkurga quyidagicha tarif bergan: "Tafakkur atrof muhitdagi voqelikni nutq yordami bilan bavosita, umumlashgan holda aks ettiruvi psixik protsess, sotsial sababiy bog'lanishlarni anglashga, yangilik ochishga va prognoz qilishga yo'naltirilgan aqliy faoliyatdir"[2]. Bizningcha ushbu ta'rifda tafakkuring eng muhim xususiyatlari va funksiyalari tasvirlangan. Tafakkurning turlari juda ko‘p. Asosiy turlaridan biri kreativ tafakkurdir. Kreativ tafakkur inson aqliy faoliyatining yuksak shakli bo'lib ob'ektiv voqeaning ongda aks etish jarayonidir. Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy munosabatlarni voqeylikni bilish quroli, shuningdek inson faoliyatining amalga oshirishning asosiy sharti hisoblanadi. Kreativ tafakkur faqat ko'rishga emas til va nutq bilan chambarchas bog'liq. Shuningdek inson o'zining ongi, tafakkuri bilan farq qilib turadi. Kreativ tafakkurimizning yoki qanchalik mustaqil fikrlashimizning boyligi bizning nutqimizda aks etib turadi. Kreativ tafakkur sezgi, idrok tasavvurlarga qaraganda voqeylikni to'la va aniq aks etadi. Tafakkurning fiziologik ko'rinishlaridan biri inson miyasining alohida funksiyasi hisoblanishidir. Uning nerv fiziologik asosi birinchi va ikkinchi signal sistemalarining o'zaro munosabatidan iborat. Kreativ tafakkur jarayonida natijada insonda fikr, mulohaza, g'oya, faraz kabilar vujudga keladi. Ular shaxsning ongida tushunchalar, hukmlar, xulosalar shaklida ifodalanadi. Inson mustaqil fikrlash jarayonida biror xulosaga fikr haqida to'xtamga keladi. Shaxs barcha fikrlarni o'zining nutqi orqali boshqalarga yetkazib beradi. Odam borki, fikr yuritish

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

qobiliyatiga ega. Mutafakkir iborasining o'zagi ham fikrdir. Lekin har bir fikr yurita oladigan kishiga nisbatan mutaffakkir iborasini qo'llab bo'lmaydi. Yuksak, teran va atroflicha fikr yurita oladigan va ijtimoiy faoliyatidan el-yurtiga nafi tegadigan siymolarnigina tafakkurli va mustaqil fikrlashga qodir mutafakkir deyishimiz mumkin.

Kreativ tafakkur ijodiy xayol bilan uzviy aloqada bo‘ladi. Shuning uchun inson amaliy faoliyatda bir talay savollarga javoblarni xayol yordami bilan topadi.Jumladan, har xil taxminlar, farazlar, ilmiy gipotezalar, kashfiyotlar, texnika sohasidagi ixtirolar ham ana shu yo‘sinda amalga oshadi, ya’ni xayol yordami bilan zarur natijalarga erishiladi. Shuningdek, kreativ tafakkur jarayoni ba’zi bir vazifalarni hal qilish, bajarish, muhokama yuritish, mulohaza qilish, fikrlash, faraz qilish singari jarayonlar mantiqiy fikr yuritish usullari va vositalarini qo‘llash yo‘li bilan nihoyasiga yetkaziladi. Masalan, matematika, fizika kabi fan asoslarini o‘zlashtirishda xuddi shunday holat ro‘y beradi. Kreativ fikr yuritish jarayonida goho kamchilik va xatolarga yo‘l qo‘yiladi. Natijada olingan javoblar yoki qo‘llanilgan vositalarda shubhalanish hissi paydo bo‘ladi. Oqibatda natijalarni tanqidiy tekshirish masalani hal qilish bilan parallel ravishda namoyon bo‘lishi mumkin. Odatda, ushbu kezlarda fikr yuritishning mantiqiy jihatlari hukm va xulosa chiqarish, isbotlash, dalillash, asoslash, rad qilish, inkor etish kabilar ijodiy tafakkur yadrosini tashkil qiladi. Kreativ taffakkur jarayonida inson masalani hal qilishda o‘zgalarning yordamiga tayanib ish ko‘radi. Ayrim hollarda masala yoki topshiriqni hal qilish, yechish paytida ijodiy tafakkur shaxslararo munosabatda, muloqotdagi voqea bo‘ladi. Muloqot esa fikr almashish, suhbatlashish, muhokama qilish, bahslashish, isbotlash, dalillash kabi mantiqiy usullardan tashkil topadi. Fan va texnika taraqqiyoti tarixining ko‘rsatishiga qaraganda, yirik ilmiy kashfiyotlar, falsafiy mushohadalar, ilmiy nazariyalar, konstruktiv ijodlarning aksariyati ulug‘ kishilar tomonidan ijtimoiy tafakkurning mahsuli sifatida, kollektiv tafakkuri natijasi tariqasida dunyo yuzini ko‘rgan. Demak, ijodiy tafakkur avlodlarning aql –

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

zakovati durdonalarining tizimlashishi natijasida voqelikni yangilik elementi bilan boyitadi, xolos.

Kreativ tafakkur bilan masala yechish o‘zaro uzviy bog‘langan bilish jarayonlaridir. Lekin, ijodiy tafakkurni masala vositasiga aylantirib yuborish mutlaqo mumkin emas.Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farqlab olish maqsadga muvofiqdir.Shuning uchun ularning nozik jihatlarini farqlab olish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, masalani hal qilish, yechish faqat tafakkur yordami bilan amalga oshiriladi, chunki bunda hech qanday o‘zgacha yo‘l bo‘lishi mumkin emas va bo‘lmaydi ham.O‘z navbatida tafakkur masala yechish vaqtidagina vujudga keladi. Shu boisdan yangi masala qo‘yishda, yangi muammolarni barpo qilishda, ularning inson tomonidan anglab yetishida va boshqa hollarda asosiy rol o‘ynaydi. Binobarin, ijodiy tafakkur faqat masala hal qilish bilangina bog‘liq bo‘lmasdan, balki bilimlarni egallash, tekstlarni tushunish, narsa hamda hodisalarni tanqidiy jihatdan analiz qilish va hokazolarda ham juda zarurdir.

Xo‘sh, muammoli vaziyat bilan masala yechishning o‘zaro tafovuti bormi? Odatda muammoli vaziyat vujudga kelganda odam favqulodda hech kutilmagan, notanish, tushunilishi murakkab bo‘lgan, noma’lum narsa va hodisalar bilan uchrashadi. Aqliy zo‘r berish natijasida iroda sifatlarini ishga solish orqali muammoli vaziyatdan kelib chiqib, uning bilan mahkam aloqa qilib hukm suradi. Tafakkur muammoli vaziyatni analiz qilish natijasida uni ravshanlashtirib, yechish mumkin bo‘lganmasalaga aylantiradi. Demak, bu yerda o‘zaro mustahkam bog‘langan fikr yuritishning berk zanjiri vujudga keladi: Tafakkur – muammo masala. Zanjirning har bir zvenosi hamisha va beto‘xtov bir – birlarini taqazo etadi.

Boshlang‘ich ta’lim davrida o‘quvchilar tafakkuri endigina shakllanayotgan bo‘ladi. Shu bois bu davrda:ijodiy topshiriqlar orqali o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga o‘rgatish,o‘qituvchi rahbarligida muammoli vaziyatlarni hal qilish, savol-javob, rolli o‘yinlar, ijodiy rasmlar, ertaklar to‘qish orqali tafakkurni faollashtirish juda muhimdir.Bu jarayon o‘quvchilarning intellektual salohiyatini

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

oshiradi, tasavvurini boyitadi va yangilik yaratishga bo‘lgan ishtiyoqini kuchaytiradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining kreativ tafakkurini oshirishda quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

1. Muammoli o‘qitish metodi:

Muammoli o‘qitish metodi — bu o‘quvchilarning bilimlarni tayyor holda emas, balki muammoni hal qilish jarayonida mustaqil kashf etish yo‘li bilan o‘zlashtirishini ta’minlaydigan o‘qitish usulidir. Ya’ni, o‘qituvchi o‘quvchilarga muayyan muammoli vaziyat yaratadi, o‘quvchilar esa o‘sha muammoni hal qilish orqali yangi bilim, ko‘nikma va fikrlash tajribasini egallaydi. Masalan: “Agar suv bo‘lmasa, hayot qanday bo‘lardi?” kabi savollar orqali o‘quvchilar fikrlashga undaladi.

2. “Aqliy hujum” metodi:

"Aqliy hujum-bu aniq belgilab berilgan muammolarni hal qilish maqsadida o'rganuvchi guruhlar tomonidan g'oyalarni yaratish uchun foydalanadigan usul"[3].Uning asosiy maqsadi o‘quvchilarning ijodiy fikrlashini faollashtirish, noodatiy yechimlarni topishga o‘rgatish va jamoada hamkorlikda fikrlash malakasini shakllantirishdir.Aqliy hujumda har qanday fikr qadrlanadi, hech bir g‘oya tanqid qilinmaydi. O‘qituvchi muammo yoki savolni beradi, o‘quvchilar esa imkon qadar ko‘p javob, fikr yoki g‘oya ilgari suradilar. Keyin barcha takliflar tahlil qilinib, eng maqbul yoki ijodiy yechim tanlab olinadi.

3. Kichik guruhlarda ishlash:

Kichik guruhlarda ishlash metodi — bu o‘quvchilarning 3–6 kishilik jamoalarda birgalikda fikr almashib, muayyan topshiriqni ijodiy hal etishiga asoslangan interfaol o‘qitish shaklidir. Bu jarayonda o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon etadi, boshqalarning g‘oyalarini tinglaydi, birgalikda muhokama qilib, yangi

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

g‘oyalarni ilgari suradi.Shunday qilib, har bir bola mustaqil fikrlash, mantiqan tahlil qilish va yangi yechim topish tajribasini egallaydi — bu esa kreativ tafakkurning asosiy belgilaridandir. Guruhda ishlash davomida har bir o‘quvchi o‘z fikrini bildiradi, boshqalar bilan solishtiradi. Bu jarayon tafakkur doirasini kengaytiradi va yangi, noodatiy g‘oyalarni yuzaga keltiradi. Guruhdagi samimiy, do‘stona muhit o‘quvchiga o‘z fikrini qo‘rquvsiz aytish imkonini beradi. Bu esa ijodiy fikrlashni faollashtiradi.Guruh topshiriqlarida muammoli savollar berilishi o‘quvchilarni yangi yechim izlashga undaydi. Natijada ular o‘z fikrlarini yangicha yo‘sinda ifodalay boshlaydilar.Fikr almashish jarayonida o‘quvchilar bir-biridan o‘rganadilar, bu esa ularning intellektual va ijodiy salohiyatini boyitadi.

4. Didaktik o‘yinlar:

O‘yin faoliyati bolalar tafakkurini faollashtiradi. Har bir o‘yin vaziyatida o‘quvchi tanlov qiladi, bu esa unda mas’uliyat va mustaqil fikrlashni shakllantiradi.O‘yinlar ko‘pincha “Nima bo‘ladi, agar...?”, “Qanday yo‘l bilan yechim topish mumkin?” kabi muammoli savollarni o‘z ichiga oladi. Bu bolalarni noodatiy yechimlar topishga undaydi. Fantaziya va tasavvur faollashadi.Rolli, ijodiy va syujetli o‘yinlar orqali o‘quvchilar hayolotini kengaytiradi, yangi obraz va voqealarni yaratadi — bu ijodiy tafakkur uchun muhim zamin yaratadi.O‘yin davomida o‘quvchilar bir-birining fikrini eshitadi, kelishadi, umumiy natijaga intiladi. Bunday jamoaviy o‘yinlar ijodiy fikr almashuvini kuchaytiradi.

5. Ko'rgazmali metodlar:

Rasm, video, maket va boshqa ko‘rgazmali vositalar orqali o‘quvchilar tasavvurida jonli obrazlar paydo bo‘ladi.Ko‘rgazmali metodlar o‘quvchilarning kreativ tafakkurini quyidagi yo‘llar bilan rivojlantiradi:

1. Tasavvur va xayolni kengaytiradi.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

Rasm, maket yoki videoni ko‘rgan bola o‘z xayolida turli g‘oyalarni yaratadi, voqeani davom ettiradi, yangi shakllarni o‘ylab topadi. Bu ijodiy tafakkurning shakllanishida muhim omil hisoblanadi.

2. Kuzatish va tahlil qilish ko‘nikmasini oshiradi.

O‘quvchi ko‘rgazmali vosita orqali hodisani o‘rganar ekan, u sabab va natijani mustaqil izlaydi. Bu esa mantiqiy va tahliliy fikrlashni rivojlantiradi.

3. Noodatiy yondashuvni rag‘batlantiradi.

Masalan, o‘qituvchi bir xil rasmni turlicha talqin qilishni so‘rasa, har bir bola o‘z tasavvuriga tayangan holda yangi fikr bildiradi. Natijada bolalarda originallik va ijodiy mustaqillik kuchayadi.

"Biz tanqidiy fikr yuritishimiz g'oyat zerikarli bo'lib tuyilishi mumkin va shu bilan birga tanqidiy fikrlash kuchini kamsitmasligimiz kerak.Bizning harakatlarimiz sabablarini aks ettirish uchun intizomga ega bo'lishimiz kerak, agar biz o'zimizni yaxshilashni va yanada muvaffaqiyatli bo'lishni istasak bu juda muhimdir.Warren Buffet dunyodagi eng badavlat kishilardan biri bo'lib, o'zining sarmoyaviy faoliyati va xayrixohligi bilan taniqli.Tanqidiy fikrlashga rioya qilish Buffet muvaffaqiyatining hal qiluvchi omilidir"[4].

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich ta’limda kreativ tafakkurni rivojlantirish — bu faqatgina o‘quvchilarga ma’lum bilim va ko‘nikmalarni singdirish emas, balki ularni mustaqil fikrlovchi, izlanuvchan va ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash jarayonidir. Chunki kreativ tafakkur o‘quvchilarga bilimni shunchaki yod olish emas, balki uni tahlil qilish, yangicha shaklda qo‘llay bilish, mavjud muammolarga noodatiy yondashish imkonini beradi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchisining tafakkuri hali shakllanish jarayonida bo‘lgani sababli, bu bosqichda berilgan har bir dars, topshiriq va faoliyat uning kelajakdagi fikrlash tarziga kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Shuning uchun har bir o‘qituvchi dars jarayonini shunday tashkil etishi kerakki, unda har bir bola o‘z fikrini erkin ayta olsin, yangicha g‘oyalar taklif qila olsin va

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 27.01.2026

xatodan qo‘rqmasin. Aynan shunday muhitda o‘quvchining ijodiy salohiyati yuzaga chiqadi, u mustaqil qaror qabul qilishni, fikrini himoya qilishni va o‘ziga ishonishni o‘rganadi.

Demak, boshlang‘ich ta’lim jarayonida kreativ tafakkurni rivojlantirish — bu yosh avlodda intellektual salohiyat, tashabbuskorlik, tanqidiy fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantirishning eng muhim sharti hisoblanadi. Bunday yondashuv nafaqat o‘quvchining o‘qishdagi muvaffaqiyatini ta’minlaydi, balki uning butun hayoti davomida o‘rganish, o‘ylash va yangilik yaratish qobiliyatiga poydevor bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.Karimov, “Yoshlarimiz-xalqimizning ishonchi va tayanchi”, Toshkent, “Ma'naviyat”, 2006, 29-bet.

2. E.G'oziyev "Psixologiya" "O'qituvchi", Toshkent, 2008, 263-bet.

3. I.S.Xotamov, M.K.Olimov "Kreativ fikrlash", "Innovatsiya-Ziyo", Toshkent 2022, 27-bet

4. I.S.Xotamov, M.K.Olimov "Kreativ fikrlash" "Innovatsiya-Ziyo" , Toshkent 2022, 15-bet